



ARTICLE INFO

Received: 20th October 2021
Accepted: 25th October 2021
Online: 30th October 2021

KEY WORDS

Xlamidiya, toksoplazmoz, urinoplazma, sitomegalovirus, rubella, gerpis, virus, bakteriya, zamburuq, reketsialar

2021-YIL "YOSHLARNI QO'LLAB QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI"

Yo'ldosheva Feruza Mardiyevna

Ishtixon Abu Ali Ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi 1-toifali
Akusherlik va ginekologiya fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5651562>

ABSTRACT

Ushbu maqolda qizlarda uchraydigan ginekologik jarayonlar, kasalliklar va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar haqida so'z obradi

2021-Yil "Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili". Yilning bunday nomlanishi bejizga emas, bolalar bizning kelajagimiz, kelajakda yoshlar bizning davomchilarimiz. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan imkoniyatlar, yaratib berilayotgan shart sharoitlar bisyordir. Ularning ta'lim-tarbiya olishlari, o'z kasbining ustalari bo'lishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratilib berilmoqda. Yoshlarimiz orasidan fan nomzodlari, Professorlar, buyuk davlat va siyosat arboblari yetishib chiqishlari uchun ular bilan yoshlikdanoq shug'illanish, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish, ularni muntazam sport bilan shug'illantirib boorish zarur. Zero, sog' tanda sog'lom aqil deb bejizga aytishmagan.

Shu sababli yoshlarimiz sog'lom bo'lishi kerak. Ayniqsa qizlarimiz bo'lajak ona hamdir.

Organizm sog'lom bo'lishi uchun esa to'g'ri rasional ovqatlanish zarur. Ovqat tarkibida oqsil, yog', uglevod, vitamin, mineral, tuzlar, selluza, suv va boshqa mahsulotlar kerakli miqdorda bo'lishi shart.

Abu ali ibn Sino „Kimki sog'lom turmush tarziga erishmoqchi bo'lsa ,o'z sog'lig'ini saqlamoqchi va mustahkamlamoqchi bo'lsa , ovqatlanish tartibi, iste'mol qilinadigan ovqatning sifati, miqdori, ovqatning iste'mol qilish vaqti va uning hazm bo'lish jarayoniga asosiy e'tiborini qaratmog'i lozim",-deb ta'kidlagan.

O'smir qizlar organizmi rivojlanib to'liq yetilishi uchun ham to'g'ri ratsional ovqatlanish talab qilinadi. Balog'atlik davrida ko'p miqdorda gormon ishlab chiqarilishi oqibatida semirish holatlari ro'y



beradi. Parhez qilish uchun esa qizlar ovqatni ratsional iste'mol qilmay qo'yadi.

Natijada ichki jinsiy azolarning rivojlanishi kechikadi yoki rivojlanmay qoladi. Bu esa kelajakda bepustlikka olib keladi. Turmush qurgandan so'ng esa yosh oilaning befarzandlik natijasida buzilishlari ko'p kuzatilmoqda.

Tibbiyot kun sayin rivojlanishiga qaramay qizlarimiz o'rtasida jinsiy a'zolarining anomal rivojlanishi ham ko'p uchramoqda. Ayrim onalarning befarqligi natijasida qiz bola turmushga chiqqandan so'ngina unda jinsiy a'zolarining anomal rivojlanishi „qin atreziyasi, bachadon gipoplaziyasi, bachadonning yo'qligi va boshqa shunga o'xshash kasalliklar“ aniqlanmoqda.

Ona homiladoqlik davrida rasional ovqatlanishi shart, homilaning normal rivojlanishi uchun ham barcha ovqat tarkibida oqsil, yog', uglevod, vitamin, mineral, tuzlar, selluza, suvlar normadan oqtiq bo'lishini organizm talab qiladi. Ona homila bilan bir qatorda o'zi uchun ham ovqatlanishi kerak.

Homiladorlik davrida barcha a'zolar qatorida jinsiy a'zolar ham rivojlanadi, ayol yuqumli kasalliklar, bilan og'risa ham anomal rivollanishlar ruy berishiga olib keladi. Kuchli asabiylashish, stes holatlar, homilaning a'zolarining anomal rivojlanishiga olib keladi.

Zararli odatlar spirtli ichimliklar istimol qilish, sigaret chekish, narkotik moddalar ham homilaga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar zahm, so'zak, ortiqilgan immin tanqisligi sindroni, qondagi virus kasalliklar ham bepustlikka olib kelishi mumkin. Ayniqsa xlamidiya, toksoplazmoz, urinoplazma, sitomegalovirus, rubella, gerpis va boshqa,

virus, bakteriya, zamburuq, reketsialar ham plasenta orqali o'tib homila rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qizlarimiz o'rtasida jinsiy a'zo yallig'lanish kasalliklari ham ko'p uchramoqda. Bunga sabab uzoq muddat sovuqlarda qolib ketish, siydik a'zolarining yallig'lanish kasalliklarining bir vaqtda uchrash holatlari ham kuzatiladi. Tashqi jinsiy a'zolarining yallig'lanish bolalikda, ichki jinsiy a'zolarining yallig'lanishi balog'atlik davrida uchraydi. Vaqtida davolanmaslik oqibatida qinning yallig'lanishiga, bachadon ichki qavatining yallig'lanishiga so'ng bachadon naylarining yallig'lanishiga olib keladi. Buning asorati esa bachadon naylarining yopishib qolishiga, oqibatda esa naylarning o'tkazuvchanligining buzilishiga olib keladi. Urug'lanish bachadon naylarining ampulyar qismida sodir bo'ladi. Naylarning o'tkazuvchanligi yopiqligi sababli urug'lanish sodir bo'lmaydi. Bu ham qizlarning turmushga chiqqandan so'ng farzandsiz bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari ichki sekreksiya bezlarining faoliyatining buzilishi, ayniqsa qalqonsimon bezning gormon ishlab chiqarishining buzilishi uning ta'siri natijasida esa tuxumdonlarda tuxum hujayra -follikulalarning rivojlanishining buzilishiga olib keladi.

Bolalik davrda qandli diabet, sil kasalligi, ichki sekreksiya bezlari kasalliklari bilan uzoq muddat davolanish ham reproduktiv sistemaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddat dori vositalarini istimol qilish, rengen nurlari bilan davolanish bepustlikning yana bir sababchisi hisoblanadi.

Balog'atlik davrida xilma xil qorin bo'shlig'da operatsiyalar o'tkazilishi, masalan ko'richakni olib



tashlash, tuxumdolarni olib tashlash, ichaklarni operatsiy qilish, jigar, taloq, buyraklarni operatsiy qilish natijasida qorin sohasida chandiqlar hosil bo'lishiga olib kelishi bu holat ham bepushlikning sababchiga aylanmoqda.

Yaqin qarindoshlarning turmush qurushlari bunga misol bo'ladi.

Shu sababli oilasida qiz farzandi bor onalarga e'tiborsiz bo'lmasligini maslahat bergan bo'lar edik. Ayniqsa balog'atlik davrida bolalar va o'smirlar ginekologik, endokrinolog mutahassis ko'riklaridan o'tkazib turishlari, agar biror bir kasallik

aniqlanadigan bo'lsa vaqtni boy bermay davolash choralari ko'rishlari kerakligini tavsiya qilamiz.

Tibbiy koriklalar o'tkazildanda, hayot davrlari surishtirish, bolalik davri qanday o'tganligi, hayz siklining qanday kechishi, gormonlarning faoliyati, ikkilamchi jinsiy rivojlanish, ovulasiya holati, follikulalarning rivojlanishiga e'tibor berish shart.

Qizlar salomatligi qanchalik kelajakda ona bo'lishi uchun zarur ekanligini mutlaqo unutmashimiz zarur.

References:

1. Abu Ali Ibn Sino "Tib qonuhnlari" asari
2. Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi. Ixtiyorova G.A